

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

XX ASRNING 30-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRDA MAHALLIY BOSHQARUV IDORALARI TARIXI

Sodiqov Furqat Fatulloyevich

Osiyo xalqaro universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: furkatsodikhov@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6318-3091>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada 1930-yillarda O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralarining tarixiy-huquqiy masalalari yoritilgan. Shuningdek, o'rganilayotgan davrda O'zbekiston SSRda jamoalashtirish siyosatining amalga oshirilishi, ushbu siyosatning mahalliy boshqaruv idoralari faoliyatiga ta'siri hamda 1930-yilda mahalliy sovetlarga o'tkazilgan qayta saylovlar manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. XX asrning 30-yillarida mahalla komitetlarining shakllanishi, vakolatlari va faoliyati ham tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, kollektivlashtirish, mahalliy sovetlar, tuman soveti, shahar soveti, qishloq soveti, ijroiya qo'mitalari, Konstitutsiya, qayta saylovlar, mahalla komitetlari, batrak, kambag'al.

ИСТОРИЯ МЕСТНЫХ ОРГАНОВ УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ССР В 1930-Е ГОДЫ

Содиқов Фурқат Фатуллоевич

Азиатский международный университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье освещаются историко-правовые аспекты деятельности местных органов управления в Узбекской ССР в 1930-е годы. Кроме того, на основе источников и научной литературы анализируются проведение политики коллективизации в Узбекской ССР в исследуемый период, её влияние на деятельность местных органов управления, а также перевыборы в местные Советы, проведённые в 1930 году. Исследуются также процесс формирования, полномочия и деятельность махаллинских комитетов в 1930-е годы.

Ключевые слова: Узбекская ССР, коллективизация, местные Советы, районный Совет, городской Совет, сельский Совет, исполнительные комитеты, Конституция, перевыборы, махаллинские комитеты, батрак, бедняк.

HISTORY OF LOCAL GOVERNMENT BODIES IN THE UZBEK SSR IN THE 1930S

Sodiqov Furqat Fatulloyevich

Asia International University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article examines the historical and legal aspects of local government bodies in the Uzbek SSR during the 1930s. Based on historical sources and scholarly literature, the study also analyzes the implementation of collectivization in the Uzbek SSR during the period under review, its impact on the activities of local government bodies, and the re-elections to local Soviets held in 1930. Particular attention is also paid to the formation, powers, and activities of mahalla committees in the 1930s.

Keywords: Uzbek SSR, collectivization, local Soviets, district Soviet, city Soviet, village Soviet, executive committees, Constitution, re-elections, mahalla committees, farm laborer, poor peasant.

Kirish. XX asrning 30-yillarida O'zbekiston SSR tarixida sanoatlashtirish va jamoalashtirish (kollektivlashtirish) siyosati muhim o'rin tutadi. Davlat siyosati va boshqaruv idoralari jamoalashtirishga o'tish davrida o'z tizimlarida o'zgarishlarni amalga oshirdi. Jumladan, mahalliy sovetlarga qayta saylovlar o'tkazish, jamoalashtirishni tezlashtirmagan yoki kamchilikka uchragan mahalliy sovetlarda qayta saylovlar o'tkazilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur mavzu va davr bo'yicha manba va adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Milliy arxivi 86-fond, 1-ro'yxat, 6684-ish ma'lumotlarida shahar sovetlari, tuman ijroiya qo'mitalari va byurolari saylovlarida vakillik normalari to'g'risidagi hujjat hamda mahalliy sovetlar tarkibi bo'yicha ma'lumot berilgan. Sovet davrida chop etilgan fundamental, tarixiy va huquqiy adabiyotlarda jamoalashtirish siyosati davrida mahalliy sovetlarda qayta saylovlarning o'tkazilishi, O'zbekiston SSRning 1931-yilgi Konstitutsiyasida mahalliy boshqaruv idoralari va ularning tarkibi, vakolati, mahalliy sovetlarga saylovlar bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan. Bularga 1963-yilda X. Sulaymonova va O. Eshonov muharrirligi ostida chop etilgan "История советского государства и права Узбекистана: 1924–1937 гг." (Istoriya sovetского gosudarstva i prava Uzbekistana: 1924–1937 gg.) nomli fundamental asarni, 1957-yilda Moskvada chop etilgan "История Советской Конституции (в документах) 1917–1956." (Istoriya Sovetskoy Konstitutsii (v dokumentax) 1917–1956) nomli hujjatlar to'plamini, V. Nepomninning "Очерки истории социалистического

строительства в Узбекистане (1917–1937 гг.)” (Ocherki istorii sotsialisticheskogo stroitelstva v Uzbekistane (1917–1937 gg.)) monografiyasini keltirish mumkin.

Mustaqillik yillarida ushbu masala bo'yicha 2015-yilda Rossiyaning Blagoveshensk shahrida chop etilgan “Советские конституции. Хрестоматия.” hujjatlar to'plamining 2-jildida 1931-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida mahalliy boshqaruv idoralari tuzilishi, saylanishi va vakolatlari masalalari yoritilgan. Shuningdek, F. Sodiqovning “O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati (1917–1938-yillar)” nomli hamda M. Haydarovning “O'zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimi: shakllanishi, bosqichlari va mohiyati (1917–1941-yillar)” (kirill alifbosida) nomli monografiyalarida ham ushbu masalalar atroficha tahlil qilingan.

MUHOKAMA

SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi bo'lajak sovetlarni qayta saylash kampaniyasi jarayonida batraklar, kambag'allar va o'rtahol dehqonlarning keng ommasini jamoalashtirish siyosatini yanada rivojlantirish hamda quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosatini amalga oshirishga safarbar etish zarurligini ta'kidladi. Qayta saylash kampaniyasi nafaqat sovet organlarini qayta shakllantirish, balki bahorgi ekish kampaniyasini muvaffaqiyatli o'tkazishga ham xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Qishloq sovetlari va tuman ijroiya qo'mitalarini qayta saylashga oid rejalar, shuningdek, qishloq sovetlari va ularning alohida a'zolarining faoliyati to'g'risidagi hisobotlar qayta saylash jarayonidan oldin kambag'allar guruhlarini, batraklar va kambag'allarning umumiy yig'ilishlari hamda kolxozchilar yig'ilishlarida muhokama qilinishi lozimligi belgilandi. Mazkur tartib orqali qayta saylash kampaniyasining ijtimoiy bazasini kengaytirish va sovet organlari tarkibida jamoalashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlovchi guruhlarning mavqeyini kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Hujjatda qishloq sovetlari va tuman ijroiya qo'mitalarini muddatidan oldin qayta saylash, shuningdek, yalpi jamoalashtirish tumanlarida qishloq sovetlarini qayta saylash ishlari SSSR va ittifoqdosh respublikalarning amaldagi saylov qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi shartligi ham alohida qayd etilgan.

1931-yil 28-fevral kuni O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilindi [1; 278-b.]. Unda O'zbekiston SSR mahalliy boshqaruv idoralarining huquqiy maqomi va vakolatlari belgilangan. Konstitutsiyaga ko'ra, tuman, shahar va qishloq sovetlari hamda ularning ijroiya qo'mitalari mahalliy davlat boshqaruvining asosiy bo'g'inlarini tashkil etgan. 1926-yilgi Konstitutsiyadan asosiy farqi shundaki, okruglar tugatilib, mahalliy boshqaruv idoralarining eng yuqori bosqichi tuman sovetlari bo'ldi.

NATIJALAR

O'zbekiston SSR jamoalashtirish siyosiy kampaniyasining 3-bosqichida bo'lib, ushbu siyosat respublikada 1933-yil oxirida tugatilishi kerak edi. Ammo 1932-yilning kuzida jamoalashtirish rejaga qaraganda 2,5 baravar, paxtachilik tumanlarida esa 3 baravardan ziyod ko'rsatkichni qamrab olgan [2; 168-b.].

1-jadval.

Yil	Ko'rsatkich turi	Jamoalashtirish darajasi (foizda)	Qo'shimcha ma'lumotlar
1928	Haqiqiy holat	2 foiz	Respublika bo'yicha bor-yo'g'i 510 ta kolxoz mavjud bo'lgan.
1932	Reja bo'yicha	27 foiz	Rejalashtirilgan maqsadli ko'rsatkich.
1932-yil kuz fasli	Amalda	67,6 foiz	Reja amalda qariyb 2,5 barobar oshig'i bilan bajarilgan.
1932-yil kuz fasli	Amalda (Paxtachilik tumanlari)	83,4 foiz	Kollektivlashtirish asosan yakunlangan va “quloq”lar sinf sifatida tugatilgan.

1-jadval. O'zbekiston SSRda jamoalashtirishning reja va amaldagi holati.

SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumining 1930-yil 31-yanvardagi “Qishloq sovetlari va tuman ijroiya qo'mitalarini muddatidan oldin qayta saylash to'g'risida”gi qarorida O'zbekiston SSR qishloqlarida jamoalashtirish (kollektivlashtirish) munosabati bilan “Sovetlarning yangi vazifalari to'g'risida”gi 1930-yil 25-yanvardagi qarorida o'z ishini qayta qurmagan qishloq soveti, kolxoz harakatining boshida turmagan qishloq soveti, qishloqni sotsialistik qayta o'zgartirish sur'atlaridan orqada qolayotgan, kambag'al-batraklar (kambag'allar va yollanma ishchilar) ommasini tashkil etishni bilmaydigan qishloq sovetlarida zudlik bilan qayta saylovlar o'tkazilishi belgilandi [3; 617-b.].

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi ittifoqdosh respublikalar Markaziy Ijroiya Qo'mitalariga qishloq va tuman sovetlarini qayta saylash bilan bog'liq bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni taklif etdi. Jumladan, tarkibida sovet hokimiyati g'oyasiga qarshi bo'lgan “yot unsurlar” mavjud bo'lgan, batraklar, kambag'allar hamda o'rtahol dehqonlar ommasiga tayanmagan va dehqonlarni sotsialistik qayta qurish hamda kolxoz harakatiga samarali rahbarlik qila olmagan ayrim qishloq sovetlarini muddatidan oldin qayta saylashga ruxsat berildi [4; 188–189-b.].

Yalpi jamoalashtirish amalga oshirilayotgan tumanlarda esa barcha qishloq sovetlarini qayta saylash jarayonini ularning dehqonlarni sotsialistik qayta qurishdagi rahbarlik ta'sirini kuchaytirish, shuningdek, aholining batraklar, kambag'allar va o'rtahollardan iborat qatlamlari hamda kolxoz faollarini sovetlar faoliyatiga kengroq jalb etish maqsadida tashkil etish belgilandi. Shu bilan birga, qishloq sovetlariga yetarli darajada rahbarlikni ta'minlamagan, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish jarayonini yetarlicha jadallashtirmagan va kolxoz aholisi uchun xizmat ko'rsatish

tizimini yaxshilash bo'yicha zarur choralarni ko'rmagan tuman ijroiya qo'mitalarini ham qayta saylashga ruxsat berildi.

Shu o'rinda "qayta saylash" va "muddatidan oldin qayta saylash" tushunchalarini izohlash maqsadga muvofiq bo'ladi. "Qayta saylash" odatiy saylov jarayonini, "muddatidan oldin qayta saylash" esa vakolat muddati tugashidan avval sovet organlari tarkibini almashtirishni anglatadi.

1930-yil 16-oktyabrda O'zSSR MIQ Prezidiumi qarori asosida Markaziy saylov komissiyasi tuzildi va unga 31 kishi kiritildi. 1930-yil 22-oktabrda Markaziy saylov komissiyasi tarkibida tashkiliy, tashviqot, irrigatsiya va shikoyatlarni tahlil qilishdan iborat to'rtta kichik komissiya tuzildi [5; 156-b.].

Sovet hukumatining O'zbekistonda mahalliy boshqaruv idoralarini sovet g'oyalari va siyosatiga qarshi bo'lganlardan tozalash, mustaqillik uchun kurash harakatlariga qarshi keng ko'lamli siyosatiga qaramay, ayrim hududlarda jamoalashtirish, quloqlashtirish va sovet hokimiyatining jamiyatning ayrim qatlamlariga qarshi zulmiga nisbatan qarshi harakatlar bo'lib turgan. Masalan, Ibrohimbek boshchiligidagi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat vakillarining Tojikiston SSR hududiga o'tishi ortidan 1931-yilda Buxoro okrugining Karmana tumanida boylar, mullalar, amirning sobiq amaldorlari va boshqa sovet hokimiyati siyosatiga qarshi bo'lgan xalq vakillari faollashadi. Ular tarkibida tuman partiya komiteti kotibi va tuman militsiyasi boshlig'i ham bo'lgan. Natijada, buni aniqlagan sovet hukumati tomonidan tuman rahbarlari orasidagi aybdorlar sudga berilib, jazolangan. O'zbekiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti va respublika hukumatining qaroriga binoan Karmana tuman partiya qo'mitasi va tuman ijroiya qo'mitasi tarqatib yuborilgan. Karmana partiya tashkiloti va butun sovet apparatida tozalash ishlari o'tkazilgan [2; 165-166-b.].

O'zbekiston SSR Markaziy saylov komissiyasi mahalliy saylov komissiyalari ishi va tarkibini o'rganib chiqdi. Hududiy saylov komissiyalari ishini to'g'ri tashkil etish uchun targ'ibot ishlari kuchaytirilib, ular o'zbek, rus, tojik, qozoq tillarida chop etilgan targ'ibot materiallari bilan ta'minlandi. O'zbekiston SSR MIQ joylarda saylovlarni amalga oshirishda yordam berish uchun instruktorlar (yo'riqchilar) guruhlarini yubordi. 1931-yildagi mahalliy sovetlarga saylovlar 1931-yil 20-yanvardan 20-fevralgacha bo'lib o'tdi [6; 396-b.].

1931-yil 9-yanvar kuni O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) tomonidan "Shahar sovetlari, tuman ijroiya qo'mitalari va byurolari saylovlarida vakillik normalari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Rezolutsiyada 21-39 kishi va ularning nomzodlarining 1/3 qismi tuman ijroiya qo'mitalariga, 7-13 a'zosi esa tuman ijroiya qo'mitalarining prezidiumiga, shu jumladan rais, uning o'rinbosari, kotibi va ko'pi bilan to'rt nomzodga saylanishi tavsiya etilgan. Shahar sovetlari rayosatida va bo'ysunuvchi tuman ijroiya qo'mitalarida ko'pi bilan 9 a'zo, shahar sovetlarida esa bevosita O'zbekiston SSR Sovetlari MIQ rayosatiga bo'ysunuvchi ko'pi bilan 15 deputat bo'lishi belgilangan [7; 12-13-b.].

1931-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 59-moddasida "joylarda o'z vakolatlari doirasida va tuman chegaralarida oliy hokimiyat tuman sovetlari syezdlaridir, syezdlar oralig'idagi davrda esa — tuman ijroiya qo'mitalaridir", deb belgilangan [1; 283-b.]. Mazkur norma tuman darajasidagi boshqaruvning ikki asosiy institutsional shaklini — vakillik organi sifatidagi tuman Sovetlari syezdi va ijroiya organi sifatidagi tuman ijroiya qo'mitasini ajratib ko'rsatadi. Shu jihatdan tuman ijroiya qo'mitasi doimiy faoliyat yurituvchi boshqaruv organi sifatida sovetlar syezdlari oralig'ida davlat hokimiyatini amalga oshirgan.

Tuman ijroiya qo'mitalarining kundalik boshqaruv faoliyatini tashkil etish uchun prezidiumlar tuzilgan. Konstitutsiyaning 66-moddasida ushbu organlarning vazifasi aniq ko'rsatilgan: ular "Sovet hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini hayotga tatbiq etish hamda mazkur tuman ijroiya qo'mitasi boshqaruvidagi joriy ishlarni yo'naltirish va birlashtirish" uchun tashkil etilgan [1; 284-b.].

Mahalliy boshqaruv tizimining quyi bo'g'inida shahar va qishloq deputatlar Sovetlari faoliyat yuritgan. Konstitutsiyaning 71-moddasida qishloq Sovetlari har 100 nafar aholiga bir deputat hisobidan shakllantirilishi va ularning tarkibi kamida uch kishidan iborat bo'lishi belgilangan. Deputatlarning vakolat muddati esa bir yil etib belgilangan.

Shuningdek, mahalliy sovetlarga mamlakatni sanoatlashtirish rejasini bajarish hamda jamoalashtirish, kooperatsiyalash va sovet xo'jaliklarini qurish asosida qishloq xo'jaligini sotsialistik qayta qurish vazifalari ham Konstitutsiya asosida yuklatilgan.

O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralarining muhim bo'g'ini mahalla komitetlari edi. 1932-yil 17-aprelda "O'zbekiston SSR shaharlarida mahalla (mavze) komitetlari to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi [8; 617-623-b.]. Mazkur nizomga muvofiq, 1924-yildan beri jamoatchilik asosida hech qanday haq olmasdan faoliyat yuritayotgan mahalla komissiyalari o'rnida mahalla komitetlari vujudga keldi. Mazkur nizom mahallalarni shahar va rayon sovetlari tasarrufiga kiritdi, shuningdek, ular faoliyatining tashkil etilishini nazorat qildi. Nizomga muvofiq, mahalla komitetlari hukumatning umumiy qarorlarini bajarishi, davlat va mahalliy soliqlar hamda yig'implarni yig'ishi, shahar qurilishining kommunal, madaniy, ijtimoiy va xo'jalik sohalari, shuningdek, jamoat tashabbuskorligini rivojlantirish, jamoat tartibini saqlash va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishi kerak edi.

Yangi nizomga ko'ra, mahalla komitetlari a'zolari jamoatchilik asosida ishlab, o'z mehnatlari uchun haq olmagan. Biroq yirik mahallalarda mahalla fuqarolarining umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha va shahar soveti hamda tegishli rayon soveti ruxsati bilan komitet tarkibiga xizmat haqi oladigan kotibni kiritish mumkin bo'lgan. Mahalla komiteti kotibining ish haqi va mahalla komiteti ishi bilan bog'liq boshqa xarajatlar: kanselyariya xarajatlari, kanselyariya xonasini tutish, sug'urta badallari uchun mablag'lar mahalla fuqarolarining umumiy yig'ini tomonidan belgilangan va keyinchalik shahar hamda tegishli rayon soveti tomonidan tasdiqlanib kelingan [9; 46-b.].

Mahalla komitetlari bir yil muddatga saylangan. Ularga uch kishi: rais, rais o'rinbosari, kotib va doimiy a'zolar tarkibidan chiqib ketganda ularning o'rniga saylovlarsiz va navbati bilan kiritiladigan 2 nafar nomzod saylangan. Yirik

mahallalarda mahalla komiteti a'zolari sonini 5 kishigacha va ularga nomzodlarni 3 nafargacha oshirishga ruxsat etilgan edi. Yuqoridagi Nizomga ko'ra, mahalla komitetlarining asosiy vazifalariga:

— maktablarga barcha imkoniyatlarni ishga solib, maktab yoshidagi bolalarni jalb etish, ularning aholi savodsizligini bartaraf etishda ishtirokini ta'minlash, shuningdek, maktablarga jamoatchilik tomonidan moddiy yordam berishni tashkil qilish;

— hunarmandchilik artellari, jamoat korxonalari, oshxonalarini tashkil etishga ko'maklashish, shuningdek, mehnatkash xotin-qizlarning kundalik ehtiyojlari va talablariga diqqat bilan yondashish;

— tug'ilish, vafot etish, oila qurish va boshqalar haqida o'z vaqtida xabar berish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish yo'li bilan shahar va rayon sovetlariga fuqarolik holati aktlarini ro'yxatga olish va aniqlashga yordam berish kirgan [9; 53-b.].

XULOSA

XX asrning 30-yillarida O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati jamoalashtirish siyosatining amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liq holda qayta tashkil etildi. Mahalliy sovetlarni muddatidan oldin qayta saylash amaliyoti ularning tarkibini siyosiy jihatdan qayta shakllantirish, jamoalashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy qatlamlar ishtirokini kengaytirish va davlat siyosatini joylarda izchil amalga oshirishning muhim vositasiga aylangan. 1931-yilgi Konstitutsiya esa tuman, shahar va qishloq sovetlari hamda ijroiya qo'mitalarining huquqiy maqomi va vakolatlarini mustahkamladi. Shu jarayonda mahalla komitetlarining tashkil etilishi mahalliy boshqaruvning quyi bo'g'inini institutsional jihatdan takomillashtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Советские конституции: хрестоматия: в 4 ч.* Ч. 2: СССР, 1922–1936 гг. / сост. Д. В. Кузнецов. – Благовещенск: Благовещенский государственный педагогический университет, 2015. – 334 с. – Электронный ресурс. – URL: https://kuznetsov.ucoz.org/index/sborniki_dokumentov_konstitucii/0-34 (Кузнецов)
2. Непомнин В. Я. *Очерки истории социалистического строительства в Узбекистане (1917–1937 гг.)*. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1957. – 218 с. – URL: <https://books.google.com/books?id=0q490gEACAAJ> (IAS)
3. *История Советской Конституции (в документах). 1917–1956 гг.* / сост. А. А. Липатов, Н. Т. Савенков; предисл. и общ. ред. С. С. Студеникина. – Москва: Государственное издательство юридической литературы, 1957. – 1046 с. – URL: <https://lawlibrary.ru/izdanie14762.html> (Правовая библиотека)
4. О досрочных перевыборах сельских Советов и районных исполнительных комитетов: постановление Президиума ЦИК СССР от 31 января 1930 г. // *Собрание законов и распоряжений Рабоче-Крестьянского Правительства СССР*. – 1930. – № 9. – Ст. 106. – С. 188–189. – URL: <https://docs.historyrussia.org/ru/nodes/126046> (История России)
5. Sodiqov F. F. *O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati (1917–1938-yillar)*. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – URL: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/download/9332/10062/19518> (Американский Академический Издатель)
6. *История советского государства и права Узбекистана: в 3 т.* Т. 2: 1924–1937 гг. / отв. ред. А. И. Ишанов, Х. С. Сулайманова. – Ташкент: Издательство АН УзССР, 1963. – 825 с. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_005679435/ (Русская Библиотека)
7. O'zbekiston Milliy arxivi. R–86-fond, 1-ro'yxat, 6684-ish, 12–13-varaqlar. – URL: <https://portal.archive.uz/> (Портал архива Узбекистана)
8. Положение «О махаллинских (квартальных) комитетах в городах Узбекской ССР» // *Собрание узаконений и распоряжений рабоче-дехканского правительства Узбекской Советской Социалистической Республики*. – 1932. – № 10. – 7 апреля. – С. 617–623. – URL: <https://nlobooks.ru/article/13159/> (Nlobooks)
9. Malikova G. R. *Mahalla instituti rivojlanishining tarixiy-huquqiy masalalari: monografiya*. – Toshkent, 2017. – 159 b. – URL: <https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO13327fO1.file> (interaktiv.oak.uz)